

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2022 №9

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI  
**AXBOROTNOMASI**



**В Е С Т Н И К**  
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

Тошкент



Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе редакционно-издательского отдела Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста : О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском управлении печати и информации

Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом № 201/3 от 30 декабря 2013года

реестром ВАК в раздел медицинских наук

Рукописи, оформленные в соответствии с прилагаемыми правилами, просим направлять

по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,

Главный учебный корпус ТМА,

4-й этаж, комната 444.

Контактный телефон: 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru

rio@tma.uz

Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.

Гарнитура «Cambria».

Тираж 150.

Цена договорная.

Отпечатано на ризографе редакционно-издательского отдела ТМА. 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА № 9, 2022

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ**

**Главный редактор**

проф. А.К. Шадманов

**Заместитель главного редактора**

проф. О.Р.Тешаев

**Ответственный секретарь**

проф. Ф.Х.Иноятова

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ**

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Татьяна Силина (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Людмила Зуева (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

проф. Саломова Ф.И.

проф. Саша Трескач (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

**Члены редакционноого совета**

д.п.н. Абдуллаева Р.М. (Ташкент)

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

<b>ГИГИЕНА, САНИТАРИЯ И ЭПИДЕМИОЛОГИЯ</b>	<b>HYGIENE, SANITATION AND EPIDEMIOLOGY</b>	<b>Стр.</b>
Азизова Ф.Л., Адилова З.У., Адилова Ш.К. ИЗУЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МЕДИЦИНСКИХ СЕСТЕР В РАБОТЕ С ДЕТЬМИ В ДОШКОЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ	Azizova F.L., Adilova Z.U., Adilov Sh.K. STUDYING THE ACTIVITIES OF NURSES IN WORKING WITH CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	142
Mamatqulov B.M., Sobirova S.J., Urazaliyeva I.R. JAROHLIK BO'LIMI HAMSHIRALARI MENHAT SIFATI VA SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	Mamatkulov B.M., Sobirova S.J., Urazaliyeva I.R. FACTORS AFFECTING THE QUALITY AND EFFICIENCY OF THE WORK OF NURSES OF THE SURGICAL DEPARTMENT	145
Маматқулов Б.М., Абдурахимов А.Б. МИС ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАСИ ИШЧИЛАРНИНГ САЛОМАТЛИК ҲОЛАТИ, КАСАЛЛАНИШЛАР СТРУКТУРАСИ ВА ДАРАЖАСИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ	Mamatkulov B.M., Abdurakhimov B.A. THE MAIN CHARACTERISTICS OF THE HEALTH STATUS, INCIDENCE RATE AND DISEASE STRUCTURE OF WORKERS IN THE COPPER PRODUCING ENTERPRISE	149
Маматқулов Б.М., Нематов А.А. ПАНДЕМИЯ (COVID-19) ДАВРИДА АҲОЛИГА ТИББИЙ-ИЖТИМОЙ ЁРДАМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ	Mamatkulov B.M., Nematov A.A. ORGANIZATION OF MEDICAL AND SOCIAL ASSISTANCE TO THE POPULATION DURING THE PANDEMIC (COVID-19)	155
Niyozova N. GIGIENIK MADANIYATNING MANBAVIY ANAMIYATI	Niyozova N. SOURCE IMPORTANCE OF HYGIENIC CULTURE	160
Саломова Ф.И., Ахмадалиева Н.О., Шарипова С.А. ГИГИЕНИЧЕСКАЯ ОЦЕНКА УСЛОВИЙ И ОБРАЗА ЖИЗНИ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ТМА	Salomova F.I., Akhmadaliev N.O., Sharipova S.A. HYGIENIC ASSESSMENT OF CONDITIONS AND LIFESTYLES OF TEACHERS OF TMA	162
Уразалиева И.Р., Маматқулов Б.М. АНАЛИЗ ЗАБОЛЕВАЕМОСТИ И ПСИХОЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ РИСКА, ВЛИЯЮЩИЕ НА СОСТОЯНИЕ ЗДОРОВЬЯ ПАТРОНАЖНЫХ МЕДИЦИНСКИХ СЕСТЁР	Urazaliyeva I.R., Mamatqulov B.M. ANALYSIS OF MORBIDITY AND PSYCHOEMOTIONAL RISK FACTORS AFFECTING THE HEALTH OF NURSING	166
Шадманов А.К., Хегай Л.Н., Абдурахимов А.Х., Аслонов М.Н., Нурматов Б.К. АСПЕКТЫ И ПРИОРИТЕТЫ ЛЕГКОЙ ПИТАНИЯ ДЛЯ ПАЦИЕНТОВ С COVID-19	Shadmanov A.K., Khegay L.N., Abdurakhimov A.Kh., Aslanov M.N., Nurmatov B.K. ASPECTS AND PRIORITIES OF EASY FOOD FOR PATIENTS WITH COVID-19	172
<b>ПОМОЩЬ ПРАКТИЧЕСКОМУ ВРАЧУ</b>	<b>HELPING A PRACTITIONER</b>	<b>Стр.</b>
Sobirjonov A.Z, Latipova K.D. SUN'IY INTELLEKTNI TIBBIYOTDA QO'LANILISHI	Sobirjonov A.Z, Latipova K.D. APPLICATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN MEDICINE	184
Худанов Б., Туйгунов Н., Махмудов С., Эргашев Ж., Матякубов М., Абдурахимова Ф., Турсунова Ж., Убайдуллаев Б. ВИРТУАЛ БЕМОР СИМУЛЯЦИОН ДАСТУРИЙ МАХСУЛОТИНИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ	Khudanov B., Tuygunov N., Makhmudov S., Ergashev Zh., Matyakubov M., Abdurakhimova F., Tursunova Zh., Ubaidullaev B. BENEFITS OF VIRTUAL PATIENT SIMULATION SOFTWARE	187
Эргашов А.Т. Иноятова Ф.Х. Тожимуродов Х.А. ТАБАКОКУРЕНИЕ ЯВЛЯЕТСЯ НЕГАТИВНЫМ ФАКТОРОМ РАЗВИТИЕ ИНТЕРСТИЦИАЛЬНОГО ЛЕГОЧНОГО ФИБРОЗА	Ergashov A.T. Inoyatova F.Kh. Tozhimurodov H.A.T OBACCO IS A NEGATIVE FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF INTERSTITIAL PULMONARY FIBROSIS	193

**GIGIENIK MADANIYATNING MANBAVIY AHAMIYATI**

Niyozova N.

**ИСХОДНОЕ ЗНАЧЕНИЕ ГИГИЕНИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ**

Ниезова Н.

**SOURCE IMPORTANCE OF HYGIENIC CULTURE**

Niyozova N.

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

**Summary.** *This article shows the concept of hygienic culture and its essence, information from the sources of antiquity, its specific aspects and the source study significance of the study.*

**Key words:** *society, hygiene, culture, health, Avesta, Ar-Razi, Ibn Sina, medicine*

**Резюме.** *В данной статье показаны понятие гигиенической культуры и ее сущность, сведения из источников древности, ее специфические аспекты и источниковедческая значимость изучения.*

**Ключевые слова:** *общество, гигиена, культура, здоровья, Авеста, Ар-Рази, Ибн Сина, медицина.*

“Gigienik madaniyat” tushunchasi, uning mazmun - mohiyati fanda kam o’rganilgan masalalardan biri. Shu nuqtai nazardan keyingi paytlardan uni o’rganish dolzarb vazifalardan sanaladi. Buning eng asosiy sabablaridan biri-jamiyatda sog’lom turmush tarzi falsafasi yaratish, uni odamlar ongiga chuqur singdirishda muammolar mavjudligida namoyon bo’lmoqda. Gigienik madaniyatning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, ayniqsa “gigiena”, “madaniyat” va ularning uyg’unlashuvidagi “gigienik madaniyat” tushunchasining ilmiy-falsafiy mazmunini, uning tarixiy genezisini hamda ushbu madaniyat to’g’risidagi muqobil qarashlarni o’rganish, qolaversa ilmiy izlanishlar olib borish muhimdir.

Jamiyat rivojida gigienik madaniyatning shakllanishi ham o’ziga xos qonunlarga ega. Uni tarixiy rivojlantirish bilan bog’liq holda amalga oshirib borganligini kuzatish mumkin. Gigienik madaniyat insonning eng qadimgi taraqqiyot bosqichlariga ham xos bo’lib, muayyan ijtimoiy makonda ularning madaniy hayot tarzi mezoniga aylangan, birga yashashi va birga mehnat qilishini ta’minlab bergan. Biroq, madaniy guruhda odamlar o’z mavqelariga ko’ra farqlanadi. Shuning uchun “aynan madaniyat jamiyatning emas, balki odamlarning farq qiluvchi belgilaridir” [1] degan fikrlar ham bor.

Maqolamiz kontekstida gigiena bilan madaniyatning uyg’unlashuvi natijasida vujudga kelgan gigienik madaniyatni tahlil qilar ekanmiz, bevosita uni sog’lom turmush tarzi tushunchasining asosiy falsafiy “infrazuzilmasi” ekanligini ta’kidlash joiz. Ayrim ilmiy-falsafiy adabiyotlarda “sog’lom turmush tarzi - bu kishilarning muayyan ijtimoiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy-ruhiy, madaniy sharoitlarda shakllangan hayotiy faoliyat uslubi, ularning turmushi, umr ma’nosi, jismoniy sihat-salomatligi, o’zaro munosabati madaniyati, xulq-atvori, tafakkur-ongi, dunyoqarashi, xatti-harakati tarzida namoyon bo’lishidir” [2], degan ta’rif keltirilgan. Bunga ko’ra, ayni vaqtda ijtimoiy hayotning barcha tizimlarida madaniy muhitning sog’lom qiyofasiga ehtiyoj ortayotganligini kuzatish mumkin.

Zero, gigienik madaniyat haqidagi zamonaviy tibbiy va falsafiy konsepsiyalar insoniyatning atrof-muhitga stixiyali, instinktiv munosabati emas, balki ratsional va irratsional, jismoniy va psixologik ta’siri, sog’lom turmush tarzi yaxlitligini kafolatlab beradigan muhim ijtimoiy zarurat ekanligini isbotlamoqda. Dastavval, bu tizim alohidalikdan umumiylikka tomon yo’nolib, kundalik hayotda sog’lom tabiiy va ijtimoiy muhit yaratishning individual ekzistensialistik mexanizmini yaratadi. Bu tom ma’nodagi sog’lom turmush tarzi falsafasini vujudga keltirgan ob’ektiv shart-sharoitlar va sub’ektiv omillar birligidir.

Aslida, “sog’lom turmush tarzi keng ma’noli tushuncha bo’lib: unumli mehnat qilish, faol dam olish, bandantariya va sport bilan shug’ullanish, organizmni chiniqtirish, shaxsiy va psixogigienaga rioya qilish, oqilona ovqatlanish, zararli odatlardan o’zini tiyish va har yili shifokor ko’rigidan o’tib turishdan iborat” [3]. Sog’lom turmush tarzi tushunchasi tahlilida gigiena va madaniyat atamalarining mazmuniga mos keluvchi qirralar mavjud bo’lib, aynan gigienik madaniyatga berilgan ba’zi ta’riflarda: “sanitariya-gigiena madaniyati deganda insonning o’y fikrlari, dunyoqarashi, ruhiyatini shakllantiradigan, uning gigienik ahvoriga ta’sir o’tkazadigan bilimlarni tushunmoq kerak” [4] deyilgan. Yuqorida keltirilgan ta’riflarni gigienik madaniyatni o’rganishning nazariy-metodologik asoslari sifatida hisobga olib, biz unga berilgan o’z ta’rifimizni keltirib o’tmoqchimiz: ***gigienik madaniyat - umuman madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi bo’lib, kishilarning tabiiy yashash sharoitida o’zining organizmi uchun funksional qulay va sog’lom muhitni vujudga keltirishga yo’naltirilgan moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratishga qaratilgan faoliyati jarayonidir.***

Gigienik madaniyat qadimgi davr manbalarida ham o’z aksini topgan. Markaziy Osiyo xalqlarining yozma manbasi bo’lgan “Avesto” dualizm, ruh va moddiylikning hayotiylik aks etgan kitob bo’lish bilan birga, inson salomatligini saqlash va gigienaga rioya qilishga

doir qimmatli ma'lumotlar beradigan manba hisoblanadi. Zardo'shtiylikning bu muqaddas kitobidagi g'oyalarga ko'ra, "hayotning kechishi tabiatda (nur va zulmat), borliqda (hayot va o'lim), ijtimoiy hayotda (yaxshilik va yomonlik), nafasat olamida (go'zallik va xunuklik), dinda (Axura Mazda bilan Axrimanning azaliy va abadiy kelishmasligi) turli hil kuchlar o'rtasidagi kurashlar sifatida namoyon bo'ladi"[5]. "Avesto"da berilgan ma'lumotlarga asosan muhit tozaligini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalarini quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin: 1) axlatlarni berkitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, qum bilan ko'mib tashlash; 2) otash, issiqlik va sovuqlik ta'siri bilan yo'qotish. "Avesto"da otash poklovchi va ofatni ketgazuvchi hisoblanadi. U bilan hatto kiyim-kechaklarni turli mikroblardan tozalab zararsizlantirish mumkin; 3) kimyoviy yo'l: kul, sirka, sharob, turli giyohlar (isiriq, mixak, sadaf, piyoz, aloe, sandal) tutatish yo'li bilan. Bunday usullar hozir ham ayrim hollarda organizm va atrof-muhitga salbiy ta'sir etuvchi mikroblarga qarshi ishlatiladi.

Qadimgi Yunonistonning sayyoh tabibi Gippokrat kasalliklarni aniqlashda odamlarning urf-odatlarini, tozalikka hamda salomatlikka munosabatlarini o'rganib chiqqanligi bois, insonning ijtimoiy va ruhiy shakllanishida tashqi muhit omillari ta'sirini ko'rsatadi [6].

Eronlik tabib Abu Bakr ar-Roziy (IX asrda yashagan) ham kasalliklar ko'payishining bosh omilini o'rganib chiqqan. Abu Bakr ar-Roziyning gigiena borasidagi fikrlari kasalliklarning mohiyati haqidagi mulohazalarida o'z ifodasini topgan. Bu masalada Roziy barcha qadimgi Sharq tibbiyoti olimlari kabi mijozlar nazariyasiga asoslanadi. U o'zining "Kasalliklar tarixi" asarida aynan odamni o'rab turgan sog'lom muhit, tarbiya, gigienik tadbirlar haqida fikr yuritadi [7].

Xorazmshohlar davlatning yirik olimi Ismoil Jurjoni o'zining "Zahirai Xorazmshohiy" nomli mashhur asarida bemor bo'lsa davolash kerakligi, lekin undan oldin uning muhiti tozaligini tekshirish lozimligini aytadi. U birinchi navbatda insonlar salomatligini tiklashning chora-tadbirlarini va atrof-muhitni ifloslantiruvchi omillarni bartaraf etish kerakligini ta'kidlaydi. Aynan shu asarda odam hayotida suv, havo, tuproq, kiyim-kechak, turar joy, uyqu, uyqusizlikning roli masalalariga to'xtalib o'tadi [8].

Mashhur tabib va olim Abu Ali ibn Sino nafaqat Sharq dunyosining balki, butun dunyo tabobati vakili bo'lib, o'rta asrlarning mashhur shifokori, o'z ijodiy faoliyatining ikki yo'nalishini belgilaydi: tibbiyot va falsafa. Bu ikki yo'nalishni doimo hayotiy bog'laydi. Gigienani tashkil etishda Ibn Sino butun umr organizmni turli yo'l bilan chiniqtirish zarurligini tavsiya etadi. Masalan: jismoniy mashq, sport, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish, optimal hayot, normal ovqatlanish, yomon odatlardan saqlanish, eng keraklisi, jamiyatga to'g'ri, oqilona yondashish. "Aytamizki, sog'liqni saqlashda asosiy narsa quyidagi umumiy va zaruriy sabablarni mo'tadil qismidir. Bunda asosan quyidagi yetti narsani mo'tadil qilishga ko'proq e'tibor berilishi kerak: mizojni mo'tadil qilish, yeyiladigan va ichiladigan narsalarni tanlash, gavgani chiqindidan saqlash, bu-

runga tortiladigan havoni yetarli va yaxshi qilish, kiyimli narsalarni yaxshilash, jismoniy va ruhiy harakatlarni mo'tadil qilish; shu harakatlar jumlasiga ma'lum darajada uyqu va uyg'oqlik ham kiradi"[9]. Shu o'rinda Ibn Sino ko'proq shaxsiy gigienik holatlarni bayon etadi. Shaxsiy gigiena faqat salomatlik garovi bo'lmasdan, balki jamiyatga hur fikrlik nishonasidir deganda Ibn Sino balki, gigienik madaniyatni nazarda tutgandir.

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalarga tayanib, quyidagi umumiy xulosani berish mumkin:

- birinchidan, gigienik madaniyat shakllanishining nazariy-metodologik masalalarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi, uning rivojlantirish imkoniyatlarida tabiat va inson o'rtasidagi qonuniyatlar, tarixiy tajribalarga asoslanish;

- ikkinchidan, hamma davrlarda ijtimoiy zaruratga gigienik madaniyat xos bo'lib, u inson salomatligini saqlashning funksional jihatlarida namoyon bo'ladi;

- uchinchidan, gigienik madaniyat rivojidadagi muqobil qarashlarda atrof-muhit va inson aloqadorligidagi muammolarni bartaraf etishning konseptual asoslari belgilanganligiga e'tibor berish;

- to'rtinchidan, gigienik madaniyatni rivojlantirishda hozirgi zamon fan-yutuqlaridan foydalanishning aktual tizimlari yaratilganligini hisobga olish.

#### Adabiyotlar:

1. Уайт Лесли. Избранное: Наука о культуре. - М.: РОССПЭН, 2004. Стр.131
2. Тиллаева Г. Ижтимоий муҳит ва ёшлар тарбияси. - Т.: ЎзР ФА фалсафа ва ҳуқуқ институти нашриёти, 2009. 157-бет.
3. Расулов А.С., Ҳалимова Д.А. Соғлом турмуш тарзи. - Т.: Абу Али ибн Сино, 2003. 5-бет.
4. Халматова М. Оилавий муносабатлар маданияти ва соғлом авлод тарбияси. -Т.: Ўзбекистон,2000. 142-бет.
5. Фалсафий қомусий луғат. Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. -Т.: Шарқ, 2004. 10-бет.
6. Duchanov V., Iskandarova Sh. Umumiy gigiena. - Т.: Yangi asr avlodi, 2008. 5-бет.
7. Абу Бакр ар-Розий. Касалликлар тарихи. -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. 37-бет.
8. Исмоил Журжоний. Заҳираи Хоразмшоҳий. 1-китоб. -Т.:Ибн Сино, 2005. -304-бет.
9. Абу Али ибн Сино. Тиб қонунлари.Уч жилдлик сайланма. Ж.1. -Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993.73-74-бет.

#### GIGIENIK MADANIYATNING MANBAVIY AHAMIYATI

Niyozova N.

**Rezyume.** Ushbu maqolada gigienik madaniyat tushunchasi va uning tarifi, qadimgi davrlar manbalaridagi ma'lumotlar, unga xos jihatlar hamda o'rganishning manbaviy ahamiyati ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, gigiena, madaniyat, salomatlik, Avesto, Ar-Roziy, Ibn Sino, tibbiyot.